



## 1940-1960-YILLARDA O`ZBEKISTONDA OLIY TA`LIM TIZIMI TARIXI

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davlat universiteti Urgut filiali*

*Pedagogika va tillarni o`qitish fakulteti*

*Peadagogika va jismoniy madaniyat kafedrasи*

*katta o`qituvchisi **Usmonov Salohiddin.***

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va tillarni o`qitish fakulteti Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi*

*2-kurs talabasi **Namozova Sevinch.***

**Anontatsiya:** Tarixdan ma`lumki, xalqimiz o`z boshidan kechirgan og`ir davrlardan biri Ikkinci jahon urushi yillaridir. O`sha davrlarda mamlakatimiz yoshlarini yuksak axloq ruhida, ayniqsa, vatanparvarlik, do`stlik, mehnatsevarlik, ongli intizom, fidokorlik, birdamlik ruhida tarbiyalash kuchaydi. Bu tarixiy sharoit taqozosi edi. Ushbu maqolada o`tgan asrning 40-60-yillarida yurtimizda faoliyat ko`rsatgan maktablar va oliy ta`lim tizimi tarixidagi ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** Umumiy o`rta ta`lim, o`rta-maxsus ta`lim, texnikum, oliy ta`lim, ta`lim vositalari, savodxonlik, milliy qadriyatlar, tarbiya.

XIX asrning o`rtalarida Turkiston o`lkasida boshlang`ich ma`lumot beradigan maktab hamda o`rta va oliy diniy ta`lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko`pchiligi diniy ta`lim beruvchi eng oddiy boshlang`ich maktablar edi. Bu maktabda machitlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar.

1940-yili respublikada barcha turdagи 5,5 mingdan ortiq umumta`lim maktablari ishlab turardi, ularda 1,3 mln.ga yaqin bolalar o`qir edi. Biroq bu davrda



maktab yoshidagi hamma bolalar ham, ayniqsa, qishloq joylarida o`qishga jalb qilishning imkonini bo`lmaydi. Maktab binolari, uskuna-jihozlar, o`qituvchilar yetishmasligi va

hokazo. Maktab ta`limi turli sohadagi bilimlarni egallagan, jamyat hayotiga faol qo`shilib keta oladigan, oliy o`quv yurtlari va texnikumlarga kirib o`qiy oladigan savodxon yoshlarni yetishtirib chiqarishni oshirishga imkon beradigan jiddiy islohotga muhtoj edi.

Ikkinci jahon urushi davrida maktablarning o`quv dasturlari sharoitiga moslashtirildi. Urush yillarida harbiy-jismoniy darslari soati ko`paydi, harbiy savodxonlik darslarini o`qitish 1-sinfdan boshlab o`tila boshlandi, harbiy ta`lim faqat og`il bolalarga emas, balki qiz bolalarga ham o`rgatila boshlandi. Maktablarda iqtidorli bolalarni o`qitishga

e`tibor berilmas edi. Maktab bolalari qalbida ona Vatan tuyg`usi, ulug` allomalarimiz va ular qoldirgan ma`naviy meros, o`z ona tili, urf-odatlari bilan faxlanish hissi shakllantirilmashdi.

Urushning dastlabki kunlaridayoq SSSR FAning O`zbekiston filiali, respublikada ishlab turgan 75 ta ilmiy muassasalar, shu jumladan, 25 ta ilmiy-tadqiqot institutlari, 23 ta ilmiy stansiya va boshqalar respublika xo`jalik hayotini harbiy izga solish bilan aloqador muammolarni hal etishga jalb etildi. Zavod-fabrikalar, temiryo`l va avtomobil yo`llari transport korxonalari bilan bevosita aloqalar o`rnatildi. Olimlarning tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida 1941-yil 29-noyabrda O`zbekiston Ilmiy muhandis-texnika jamiyati tuzildi. G`arbiy hududlardagi yirik shaharlardan ko`plab ilmiy muassasalar O`zbekistonga ko`chirib keltirildi. SSSR FAning tarix, iqtisodiyot va huquq, jahon xo`jaligi va jahon siyosati, sharqshunoslik, jahon adabiyoti, moddiy madaniyat, tuproqshunoslik, seysmologiya institutlari, bir qancha muzeylar va kutubxonalar shular jumlasiga kiradi. Akademianing 375 yirik olimlari va xodimlari ko`chib keldilar. O`zbekistonlik olimlar ko`chib kelgan yirik olimlar bilan yaqin aloqa bog`ladilar, respublikamizda mavjud bo`lgan va ko`chirib keltirilgan ilmiy muassasalarning tadqiqot yo`nalishi qayta ko`rib chiqildi, urush talablariga moslab o`zgartirildi. Olimlar o`zlarining asosiy e`tiborini mudofaa sanoati



uchun zarur bo‘lgan tabiiy resurslarni izlab topish va ulardan foydalanishni tashkil etishga qaratdilar.

Afsuski, xalq ta’lim tizimi buyruqbozlikka to`lib, ekstensiv ravishda yondashish kuchayib bordi, Buning natijasida sifat muammolari chetga surilib, miqdor ko`rsatkichlari birinchi o‘ringa o‘tdi. Ahvolni xo‘jako’rsinga yaxshilash orqasidan quvish jamiyatning madaniy holatiga yomon ta’sir o‘tkazdi hamda oliy va o‘rta maktablarga sezilarli darajada zarar yetkazdi. Urushning suronli yillarida respublika oliy o‘quv yurtlari va texnikumlar o‘z faoliyatlarini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq xo‘jaligi, maorif, tabobat va boshqa sohalar bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo‘lib qoldi. 1943-yidda respublikada 41oliy o‘quv yurti (ularning 12 tasi ko‘chirib kelingan) va 52 o‘rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko‘rsatdi. Urush yillari davomidaularda 20 mingdan ziyod oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislar yetishtirildiki, bu xalq xo‘jaligini yuqori, malakali kadrlar bilan ta’minalash imkonini berdi.

O‘zbekistonda urushdan keyingi yillarda o‘zbek xalqining sa’y-harakatlari bilan ta’lim sohasida ma’lum yutuqlarga erishildi. 1940-41- o‘quv yilidan 1970-71- o‘quv yiligacha bo‘lgan davrda umumta’lim maktablaridagi o‘qituvchilar soni 2,5 baravar ortdi. Shunga yarasha umumta’lim maktablari tarmog‘i ham kengayib bordi.

1945-yilga kelib Fanlar akademiyasi tarkibida 23 ta ilmiy muassasa, shu jumladan, 2 ta ilmiy tadqiqot instituti, 2 ta laboratoriya, tajriba stansiyalari faoliyat ko‘rsatdi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining uch faxriy a’zosi, 15 haqiqiy a’zosi, 20 muxbir a’zosi va 1265 ilmiy xodimi, shu jumladan, 54 ta fan doktori va 172 ta fan nomzodi ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. Ular orasida fizika-matematika fanlari doktorlari T. A. Sarimsoqov va V. I. Romanovskiy, geolog olim H. M. Abdullayev, fizik olim S. U. Umarov, faylasuf I. Mo‘minov, adib S. Ayniy, yozuvchi Oybek, shoir G. G‘ulom va boshqalar bor edi.

O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957-yil 1-oktyabrdagi sessiyasida “O‘zbekiston SSRda majburiy yetti yillik ta’limni to‘liq amalga oshirish



to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta`lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo`ldi. Yangi Qonunga ko‘ra umumta’lim maktabi hamma uchun majburiy bo‘lganligi bilan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab haqiqiy hayotdan ajralib qoldi, o‘quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to‘g‘ri kelmasdi. Shuning uchun ham 1959-yil martda O‘zbekiston Oliy Soveti “Maktab xalq ta’limi tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo‘lgan boshlagan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo‘lida to‘g‘anoq bo‘lib xizmat qoldi, oqibatda xalq ta’limida ahvol o‘zgarmadi.

O‘zbekistonda maktabning turmush bilan bog‘lanishini mustahkamlash to‘g‘risidagi 1959-yilda respublika hukumati qabul qilgan qonunga asosan o‘qishni ishlab chiqarish bilan qo‘sib olib borish talab etildi. Ushbu munosabat bilan o‘n yillik o‘rta maktablar qayta tashkil etilib, o‘n bir yillik o‘rta maktablarga aylantirildi, ularda o‘quvchilar fan asoslari bilan birga ishlab chiqarish kasblarini ham o‘rgana boshladilar, o‘quvchilarga kasb ta’limi berishga korxonalar, xo‘jaliklar jalb qilindi, maktablarda o‘quv kabinetlari, laboratoriylar, ustaxonalar, o‘quv-tajriba, yer uchastkalari tashkil etildi. Shunga qaramay, ishlab chiqarish ta’limini maktablarda joriy qilish katta qiyinchiliklarga duch keldi.

Korxonalar, xo‘jaliklar bu ishga tayyor emas edilar. Maktablarda ustaxonalarni zarus asbob-uskuna bilan jihozlashga mablag` yo‘q edi. Mehnat ta’limi o‘qituvchilari yetishmasdi. Buning oqibatida islohot kutilgan natijani bermadi va majburiy kasb o‘rganish bekor qilindi.

Bu davrda respublika maktablari o‘qituvchi kadrlar bilan son jihatidan yetarlicha ta’minlandi. Biroq oliy ma’lumotli pedagog kadrlar 60-yillarda respublikadagi barcha o‘qituvchilarning uchdan bir qismini tashkil qilardi, xolos. Ayniqsa, qishloqlarda ahvol og‘ir edi. Qishloq maktablarida fizika, matematika, rus tili va chet tili o‘qituvchilari yetishmasdi. Aksariyat hollarda o‘qituvchilar o‘z mutaxassisligiga kirmagan fanlardan dars berardilar.



Sovetlar davrida maktablarning o‘quv-tarbiya ishlarida katta nuqsonlar mavjud edi. O‘zbek tiliga davlat maqomi berilmaganligi, davlat idoralarida ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi tufayli maktablarda ona tili chuqur o‘rgatilmasdi. Ona tilini o‘rganishga ajratilgan dars soatlari rus tiliga ajratilgan dars soatlарining yarmini ham tashkil qilmas edi. Yoshlar mакtabni o‘zbek adabiy tilining yozma va og‘zaki shakllarini puxta o‘zlashtirmay, bitirib chiqib ketardilar.

Maktablarda ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o‘qitish o‘ta siyosatlashtirildi. Ko‘zdan kechirilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, yoshlarni milliy an‘analar va ma’naviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an‘anasi ko‘zga tashlanib bordi. Ta’lim va tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik prinsiplari asosida yondashish yoshlarning umumbashariy, milliy-madaniy qadriyatlarni, urf-odatlarni o‘rganishiga to‘sinqilik qildi. Yoshlarning zamonaviy texnologiyani yetarli o‘zlashtirib olmaganliklari sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan va madaniyatni yanada taraqqiy etishiga xalaqit berardi. Bunga asosiy sabab maorifning keng tarmoqli tizimi vujudga keltirilmaganligi, o‘qish-o‘qitishda sifat o‘zgarishining ro‘y bermaganligida edi.

Urushdan keyingi yillarda oliy va o‘rta maxsus ta’lim ancha o‘sdi. 50-yillarda 3 ta oliy o‘quv yurti — Andijon meditsina instituti, Toshkentda Elektrotexnik aloqa, Fizkultura institutlari, 60-yillarda yana 8 ta yangi oliy o‘quv yurti — Andijon paxtachilik instituti, Farg‘ona politexnika instituti, Samarqand arxitekturaqurilish instituti, Termiz, Sirdaryo, Toshkent viloyat pedagogika institutlari, Andijon tillar pedagogika instituti, Toshkent rus tili va adabiyoti pedagogika instituti tashkil etildi. 70-yillarda yana 5 ta oliy o‘quv yurti — Nukus davlat universiteti, Toshkent avtomobil yo‘llar instituti, Pediatriya instituti ochildi. Shuningdek, yangi fakultetlar, viloyatlarda yirik oliy o‘quv yurtlarining filiallari ochiidi. Yangi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Oliy maktabning asosiy vazifasi xalq xo‘jaligi va madaniyatning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iborat. Urushdan keyingi yillarda Respublika oliy o‘quv yurtlari Markaz ko‘rsatmasi, dasturlari asosida o‘quv-tarbiya ishlarini olib bordi. Bu davrda oliy maktabda



mutaxassis, kadrlar tayyorlash son jihatdan o'sdi, lekin ularning sifati talab darajasida bo'lmay qoldi.

Oliy o'quv yurtlaridagi professor va o'qituvchilar soni ham yildan-yilga oshib bordi. Oliy maktablarda 1958-yili 5 ming ilmiy-pedagog xodim ishlagan bo'lsa, 1965-yilda bu son 8 mingtaga yetdi. Oliy o'quv yurtlari olimlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ijodiy hamkorlikda fan, iqtisodiyot va madaniyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan talay ilmiy ishlar, salmoqli asarlar yaratdilar. Biroq oliy mакtab ham totalitar tartibot ta'siridan chetda qolmadi. Buning natijasida oliy maktabda qator salbiy hodisalar ro'y berdi. Miqdoriy, yalpi ko'rsatkichlar ketidan quvish, xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga mos kelmaydigan mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish shular jumlasidandir. Oliy maktabning moddiy-texnik bazasi ham juda zaif bo'lib qoldi.

Oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasida emas edi. Ko'p fanlardan, ayniqsa, tabiiy fanlardan darsliklar rus tilida chiqarilgan edi. Ular o'zbek tiliga tarjima qilishga ongli ravishda e'tibor berilmasdi. O'zbek talabalari rus tilidagi darslik va qo'llanmalardan foydalanishga majbur edilar. Ayniqsa, qishloqlardan kelgan, rus tilini bilmaydigan talabalar qiynalardilar.

Ular ko'pincha rus tilida o'qitiladigan fanlarni o'zlashtira olmay, o'qishni tashlab ketishga majbur bo'lardilar. Bir amallab institutni bitirib chiqqan mutaxassislarning bilim darajalari past bo`lardi. Institutlarda o'zbek guruhlarida rus tilida dars o'tish Markazning O'zbekistonda olib borgan ruslashtirish siyosati natijasi edi. Mutaxassis kadrlarni tayyorlashda jiddiy kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Mutaxassislar tayyorlashda ekstensiv metod, ya'ni son jihatdan ko'p kadrlar tayyorlash birinchi o'rinda bordi. Kadrlar tayyorlash sifatini ko'tarish sohasidagi sa'y-harakatlar kutilgan natija bermadi. Buning sabablari anchagina:

— o'quv yurtlarining moddiy texnik bazasi talabalarning o'sish darajasidan ancha past darajada bo'ldi, zamonaviy texnika vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanmadi;

— Respublika partiya va sovet organlari tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun har bir viloyatdan talabalar qabul qilish rejasи belgilangan bo'lib, bu rejani qanday



qilib bo'lsa ham bajarish majburiy edi. Bu o'z navbatida bilim saviyasi nihoyatda past bo'lgan yoshlarning ham oliy o'quv yurtlaridan o'rin olishiga olib keldi;

— oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida o'quv rejalarini va dasturlari 60-70-yillarda uch marta o'zgardi, har safar o'qitiladigan fanlar yangilari hisobiga ko'payib, o'quv materiallari hajmi oshib bordi, talabalarning mustaqil o'qib o'rganishlari uchun vaqt tobora kamayib bordi. Talabalarning uzoq muddatli qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi o'quv jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'quv yurtlarida keng tarqalgan foizbozlik, bir necha fanlardan o'zlashtirmaganlarni kursdan kursga shartli ravishda o'tkazish kadrlar tayyorlash sifatining pasayishiga olib keldi;

— xalq xo'jaligining mutaxassislarga bo'lgan talabi yaxshi o'rganilmadi, natijada kadrlar tayyorlashni rejorashtirishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi, ba'zi sohalarda keragidan ortiqcha mutaxassislar tayyorlandi, boshqa sohalarda, ayniqsa texnika taraqqiyotining hal qiluvchi tarmoqlarida kadrlar tanqisligiga yo'l qo'yildi;

— o'quv yurtlari faoliyatida tanish-bilishlik, oshnaog'aynigarchilik, poraxo'rlik kabi salbiy holatlarning tarqalishi ham kadrlar tayyorlash sifatini pasaytirdi, son ketidan quvish ustunlik qildi. Bunday vaziyatda yosh mutaxassislarning ma'lum qismi olgan bilimlarini turmush bilan bog'lay olmadilar, g'oyaviy-professional va axloqiy jihatdan yetuklik va qat'iylik ko'rsata olmay, ko'zbo'yamachilik, qo'shib yozish yo'liga kirib qoldilar. Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida keng tarqalgan salbiy holatlarning ildizi mutaxassislar tayyorlashdagi nuqsonlarga borib taqaladi, albatta

**Siddiq Rajabov hayoti va faoliyati hamda uning pedagogika fani rivojiga qo'shgan hissasi.** Siddiq Rajabov 1910-yili 1-aprelda Qozog'iston Respublikasining Avliyoota (hozirgi Taroz) shahrida tavallud topdi. U shu shaharda to'liqsiz o'rta maktabni tugatib, 1926-yili Farg'ona pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumi 1930-yili tugatadi. Shu oraliqda, 1928-29 yillarda Qashqadaryoning G'uzor tumanidagi olis bir qishlog'ida ochilgan mакtabda o'qituvchilik qiladi. 1930-yili Farg'ona pedagogika institutiga o'qishga kiradi. Institutni tugatgach, 1934-37 yillarda O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot



instituti aspiranturasida o'qiydi. 1935-yili yangidan ochilgan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining pedagogika kafedrasiga o'qituvchi qilib ishga qabul qilinadi. Urush yillarida "Qizil O'zbekiston" gazetasining mas'ul kotibi bo'lib ishlaydi. Siddiq Rajabov 1947-1963-yillarda Nizomiy nomidagi TDPIning pedagogika kafedrasini mudiri lavozimida, 1960-1966- yillarda esa O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining direktori lavozimida ishlaydi. 1966-yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga ishga qaytadi va shu institutning umumiyligi pedagogika kafedrasiga 1990-yilgacha mudirlik qiladi. S.Rajabov XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, 1941-yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Siddiq Rajabov pedagogika fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan birinchi o'zbek olimidir. 1917-1957-yili O'zbekiston maktablari tarixini o'rgangan olim, shu mavzuga bag'ishlangan 251 betlik doktorlik dissertatsiyasini Moskvada himoya qildi va 1958-yili birinchilardan bo'lib pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi. Olimining qalamidan chiqqan ilmiy maqolaiarda yoshlarni insoniylikka, mehnatga, vatanparvarlikka tarbiyalash mavzusi keng o'rinni oldi. 1960-yili unga professor ilmiy unvoni berildi. 1968-yili professor Siddiq Rajabov Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi bo'lib saylandi. S.Rajabov pedagogika sohasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tarixida 2017-yilgacha yagona akademikdir. O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo'shgan katta xizmati uchun S.Rajabovga 1964-yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni beriladi. Bir qancha orden va medallar bilan taqdirlandi.

## XULOSA

Sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, kolxozlar va sovxozi tuzilishi, yangi-yangi idoralarning paydo bo`lishi tegishli mutaxassislarga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Institutlar va texnikumlarga mutaxassislar yetishtirib chiqarishni miqdor jihatidan ko'paytirish vazifasi yuklandi, buning natijasida o'qish muddatlari ancha qisqartirildi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak 40-60-yillarda mamlakatimiz ta`lim tizimi tarixida yoshlarni oliy ta`lim tizimiga qamrab olish darajasi o'tgan yillardagiga



qaraganda oshgan bo`lsa ham lekin mutaxassislar va kadrlarni barkamol qilib tayyorlashda amaliy natijalarga erishilmadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Toshkent - 2017 240-250-betlar.
2. K.Hoshimov S.Nishonova “Pedagogika tarixi” Toshkent-2005 230-245-betlar.
3. R.A.Mavlonova “Umumiy pedagogika” Toshkent-2018 425-430-betlar.
4. Asqar Zunno`nov “Pedagogika tarixi” Toshkent-2000 160-164-betlar.
5. Q.Usmonov, M.Sodiqov O‘zbekiston tarixi (1917—1991-yillar) Toshkent-2010 157-223-betlar.